

TARBIYA JARAYONIDA OILA, MAHALLA HAMDA TA'LIM MUASSASALARINING O'RNI VA HAMKORLIGI

*University of business and science
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari
Valiyeva Anora, Nishonova Dilorom*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tarbiya jarayonida oila, mahalla hamda ta'lim muassasalarining o'zaro aloqalari, ularning hamkorlikdagi faoliyati va farzand tarbiyasiga ko'rsatadigan ta'siri ilmiy-nazariy va empirik misollar asosida yoritiladi. Shuningdek, O'zbekistonda tarbiya tizimini takomillashtirish yo'nalishlari hamda oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligining samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar keltiriladi.*

Kalit so'zlar: *tarbiya, oila, mahalla, ta'lim muassasasi, uzluksiz ta'lim, hamkorlik, shaxs rivojlanishi, ijtimoiylashuv, ma'naviyat.*

Mamlakatimizda bolalar va onalarga g'amxo'rlik qilish masalasi tobora davlat siyosati darajasiga ko'tarilib bormoqda. "Barcha yaxshi narsalar — bolalarga" degan shior hayotimizda yanada keng jarang sochmoqda. So'nggi yillarda qabul qilingan qaror va farmonlar ham bunga yorqin misol bo'la oladi. Bolaning maktabga qadam qo'yishidan oldin ham, maktab davrida ham asosiy tarbiya oila bag'rida amalga oshadi. Chunki oila jamiyatning eng kichik bo'g'ini sifatida farzandning dunyoqarashi, odob-axloqi va didiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Oila a'zolari o'rtasidagi ma'naviy birlik esa yosh avlodning har tomonlama barkamol bo'lishi uchun muhim shartlardan biridir.

Barkamol insonni shakllantirish uchun maktab tarbiyasini oiladan ajratib bo'lmaydi. Shu bois ota-onalar bilan ta'lim-tarbiya borasidagi tashviqot ishlarini kuchaytirish, ularni maktabning faol hamkori va o'quvchilarning maktabdan tashqari faoliyatlarida ham ishtirok etuvchi tashabbuskorlar sifatida jalb etish zarur. Jamiyat taraqqiyoti, kasblar xilma-xilligi va turmush murakkablashib borishi inson ongiga ko'rsatadigan ta'sirlarning kuchayishiga olib kelmoqda. Bunday sharoitda insonning bilim, kasb va ko'nikmalari bilan bir qatorda oilada shakllangan odob, did, farosat va emotsional madaniyatga ehtiyoj yanada oshmoqda. Estetik, axloqiy va ma'naviy sifatlar endi kundalik hayot talabiga aylanmoqda. Ana shu sifatlarning ildizi, eng avvalo, oilaviy tarbiya orqali shakllanadi va rivojlanadi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarbiyaning ham o'рни beqiyosdir. Oilaviy va ijtimoiy tarbiyaning uyg'unligi, o'zaro hamkorligi barkamol shaxs tarbiyasida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogika fanida oilaviy tarbiya eng murakkab masalalardan biri sanaladi. Chunki har bir oila o'ziga xos muhitga ega bo'lib, tarbiya jarayonida aynan shu muhitga mos yondashuvni talab qiladi. Buyuk ajdodimiz Mirzo Ulug'bek ham ota-

onalar, xususan, o'qimishli ota-onalarning farzand tarbiyasiga alohida mas'uliyat bilan yondashishi lozimligini ta'kidlagan. Farzandning yaxshi inson bo'lib kamol topishi uchun ota-ona ko'proq vaqt ajratishi, ularga odob-axloqdan saboq berishi, yomon odatlardan asrashi zarur. Shunda bolalar kelajakda ota-onasiga, Vataniga sodiq, jamiyatga foydali inson bo'lib ulg'ayadi.

O'zbek xalqi uzoq tarix mobaynida ta'lim va tarbiya borasida boy tajriba to'plagan. Bu meros hozirgi avlodni insonparvarlik, mehr-oqibat, vatanparvarlik va yuksak axloq ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda ota-onalar zimmasida farzandlarning ta'lim olishi, hunar egallashi va har tomonlama yetuk shaxs bo'lib voyaga yetishida katta mas'uliyat yotadi. Shubhasiz, tarbiyaning asosi oiladan boshlanadi.

Oila jamiyatning eng kichik ijtimoiy hujayrasi sifatida farzand tarbiyasida asosiy rolni bajaradi. Bolaning dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlari, xulqi va shaxsiy sifatleri avvalo oilada shakllanadi. Oila muhitidagi mehr-oqibat, o'zaro hurmat va ma'naviy birlik yoshlarning ongida ijobiy qadriyatlarni mustahkamlaydi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-onalarning ta'lim jarayonidagi faolligi o'quvchilarning intellektual rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Toshkent shahrida o'tkazilgan empirik tadqiqotlarda ota-onalari maktab hayotida faol qatnashadigan o'quvchilarning bilim darajasi yuqori natija ko'rsatgani kuzatilgan.

Maktab, litsey va oliy o'quv yurtlari farzandlarni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish bilan birga ularning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini ham amalga oshiradi. O'quvchilarda mustaqil fikrlash, milliy qadriyatlarni qadrlash, zamonaviy dunyoqarashga ega bo'lish ko'nikmalari ta'lim muassasalari orqali shakllanadi.

Ta'lim muassasalarida uzluksiz ta'lim modeli joriy etilishi bolaning oila va jamiyatdagi tarbiyasi bilan uyg'unlashib, shaxsning har tomonlama rivojlanishiga sharoit yaratadi.

Bola tarbiyasida maktab o'rni ham juda beqiyosdir. Har bir bola maktab ostonasiga qadam qo'yar ekan, o'zining kelajakdagi qiladigan ishlarini jajji ongida tasavvur qiladi. Maktabda olgan bilimlari, ta'lim-tarbiyasi, bu ishlarning amalga oshishida albatta o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

Mahalla — o'zbek jamiyatining qadimiy va milliy institutlaridan biri sifatida farzand tarbiyasida katta o'rin egallaydi. U yoshlarning ijtimoiylashuvi, madaniy qadriyatlarni o'rganishi va jamiyatga moslashuv jarayonida ko'prik vazifasini bajaradi.

“Mahalla tarbiyasi” loyihalari natijalari shuni ko'rsatadiki, mahalla bilan maktab va oila o'rtasidagi hamkorlik o'quvchilarning axloqiy va ma'naviy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, mahalladagi oqsoqollar va hurmatli insonlarning shaxsiy namunasi bolalar tarbiyasida samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Empirik tadqiqotlar ko'rsatmoqda:

Oila va maktab o'rtasida muntazam aloqalar bo'lgan hududlarda o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi yuqori.

Mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligida o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar bolalarda milliy qadriyatlarga hurmatni kuchaytiradi.

Uchtomonlama hamkorlik (oila–maktab–mahalla) bolalarning psixologik barqarorligi va ijtimoiy mas'uliyatini oshiradi.

Oila, maktab va mahalla o'rtasidagi hamkorlik nafaqat ta'limiy, balki ijtimoiy barqarorlikni ham ta'minlaydi. Chunki bola hayoti davomida uchta asosiy muhitda – oilada, ta'lim muassasasida va mahallada shakllanadi. Agar bu muhitlarda yagona maqsad – barkamol inson tarbiyasi yo'lida uzviylik bo'lsa, natijada farzandlarning dunyoqarashi uyg'unlashadi, shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyati ortadi.

Tarbiyaviy, tashkiliy, uslubiy ishlarni hayotga tatbiq etishda har bir fuqaro, oila, mahalla va maktab o'zining shart-sharoiti, atrof-muhitni taxlil qilib:

- ✓ o'quvchi, o'qituvchi, ota-ona;
- ✓ maktab, oila, mahalla, jamoatchilik;
- ✓ oila, mahalla, maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab;

yo'nalishlariga amaliy tarbiya ishlarini hayotga tatbiq etib va shu kun talabi darajasida targ'ibot ishlarini olib borilsa, natijada tarbiya masalalari bo'yicha ijobiy yutuqlarga erishish mumkin

Bugungi globallashtirish sharoitida yoshlar orasida turli yot g'oyalarning kirib kelishi ehtimoli kuchaymoqda. Ana shunday vaziyatda oila–maktab–mahalla hamkorligi yoshlarni milliy qadriyatlar va umuminsoniy tamoyillar asosida tarbiyalashda muhim kafolatdir. O'zaro hamkorlikning samarali mexanizmlaridan biri – ota-onalar qo'mitalari, mahalla faollari va pedagoglar ishtirokida tashkil etilayotgan davra suhbatlari, seminar va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlardir. Bu kabi tashabbuslar yoshlarning milliy g'ururini oshiradi, ularda ijtimoiy faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, oila, ta'lim muassasalari va mahalla o'rtasidagi hamkorlik nafaqat bola tarbiyasining, balki butun jamiyat ma'naviy hayotining yuksalishiga xizmat qiladi. Oila - tarbiyaning boshlang'ich o'chog'i, ta'lim muassasalari - ilmiy-nazariy bilimlar markazi, mahalla esa - ijtimoiy qadriyatlar maktabi sifatida bir butun tizimda faoliyat ko'rsatishi lozim. Uchtomonlama hamkorlikning kuchi shundaki, u bolalarda nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki mustahkam hayotiy pozitsiyani, vatanparvarlik tuyg'usini ham shakllantiradi.

Shu bois, yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda oilaning mehr-oqibati, maktabning bilim berishdagi roli va mahallaning ijtimoiy qadriyatlarni singdirishdagi vazifalari o'zaro birlashgandagina kutilgan natijalarga erishish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O'quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o'qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.
2. Хайдаров. С. (2023). Pedagogik faoliyatda o'qituvchi o'zida kompetentlik sifatlarini shakillantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 64–67.
3. Хайдаров. С. (2024). Spiritual influence on child education in families. Web of Teachers: Inderscience Research. 2 (11). 203-205.
4. Хайдаров С. (2025). Оилаларда фарзанд тарбиясига рухий таъсир ўтказиш. Modern Education and Development. 3 (17). 23-27.
5. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp. 41-43).